



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI

**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
Davlat oliy ta'lim tashkiloti

60210400 – Dizayn (sanoat dizayni)
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60210400 – Dizayn (sanoat dizayni)

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: BO'RONOV NIZOMJON SOBIROVICH

Alfraganus universiteti

falsafa doktori (PhD), dotsent



A'zo: EMURLI AQIM

National Agency for Higher Education Quality Assurance (NAQA) of Ukraine

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260062
Xulosa raqami	1210
Xulosa sanasi	27.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Namangan shahri, Davlatobod tumani, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Litsenziya: № 2734834, 20.02.2025. Guvohnoma: MAS № 0000385, 23.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Dizayn (sanoat dizayni)
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60210400
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	№ 2734834, 20.02.2025
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60210400 – Dizayn (sanoat dizayni)
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60210400 – Design: Industrial Design
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60210400 – Дизайн: промышленный дизайн
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Sanoat dizayneri
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	200 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Namangan shahri, Davlatobod tumani, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Qisman muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

60210400 – "Dizayn (sanoat dizayni)" ta'lim dasturi bo'yicha tashkiliy-boshqaruv tizimi hamda ta'lim sifatini ichki ta'minlash mexanizmlariga oid hujjatlar va amaliyot holati tahlil qilindi. O'rganish natijasida ta'lim dasturini amalga oshirish uchun mas'ul kafedra faoliyati samarali yo'lga qo'yilgani, boshqaruv jarayonlarida vakolat va mas'uliyatlar aniq belgilanganligi hamda istiqbolli rivojlanish rejasi asosida tizimli ishlar olib borilayotgani aniqlandi. Shuningdek, ichki sifat monitoringi manfaatdor tomonlar ishtirokida muntazam amalga oshirilayotgani, ta'lim dasturini takomillashtirish bo'yicha tahlil va baholash mexanizmlari amaliyotga tatbiq etilgani qayd etildi. Kafedraning moddiy-texnik bazasi zamonaviy o'quv va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish imkonini beruvchi 50 dan ortiq jihozlar bilan ta'minlangani ta'lim jarayonining sifatini oshirishga xizmat qilishi e'tirof etildi. Ijodiy va texnik kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan mazkur ta'lim dasturida boshqaruv tizimining izchil tashkil etilgani hamda kafedra faoliyatining aniq rejalashtirilgani dastur barqarorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida baholandi. Tahlil natijalari ushbu bob bo'yicha belgilangan mezonlarning bajarilganini tasdiqladi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

Ta'lim dasturining mazmuni, o'quv reja, malaka talablari, fan dasturlari, kutilayotgan ta'lim natijalari hamda bitiruvchilarda shakllantirilishi ko'zda tutilgan kompetensiyalar tahlil qilindi. O'rganish natijasida dastur belgilangan tartibda ishlab chiqilib, tasdiqlangani, uni shakllantirish jarayonida ish beruvchilar, soha mutaxassislari va professor-o'qituvchilarning faol ishtiroki ta'minlangani aniqlandi. Ta'lim dasturining maqsadlari, kutilayotgan o'quv natijalari va kasbiy kompetensiyalari davlat ta'lim standartlari, Milliy malakalar ramkasi hamda mehnat

bozori talablariga muvofiq shakllantirilgani qayd etildi. Shuningdek, bitiruvchilarga "Sanoat dizayneri" kvalifikatsiyasini berish uchun zarur bo'lgan nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan fanlar tizimli ravishda o'zaro bog'langanligi kuzatildi. Dastur mazmunida badiiy-ijodiy yondashuvning muhandislik va texnologik bilimlar bilan uyg'unlashtirilgani, bu esa sanoat dizayni yo'nalishi bo'yicha zamonaviy va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashning muhim omili ekani baholandi. Tahlil yakunlari mazkur bob bo'yicha belgilangan mezon va talablarning bajarilganini tasdiqladi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

O'quv reja, fan dasturlari, sillabuslar hamda o'quv jarayonini tashkil etish va baholash tizimiga oid hujjatlar atroflicha tahlil qilindi. O'rganish natijasida o'quv reja va sillabuslar ish beruvchilar, talabalar hamda soha mutaxassislari ishtirokida davlat ta'lim standartlari, Milliy malakalar ramkasi, kasbiy standartlar va ilg'or xorijiy oliy ta'lim muassasalari tajribasi asosida ishlab chiqilgani aniqlandi. Ta'lim jarayonining loyiha va ijodiy topshiriqlar asosida tashkil etilgani, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uzviy bog'lashga alohida e'tibor qaratilgani qayd etildi. Shuningdek, o'quv natijalarini baholash mezonlari ochiq va shaffof belgilanganligi, qayta aloqa hamda apellyatsiya tartiblarining amaldagi me'yoriy hujjatlar asosida yo'lga qo'yilgani, akademik halollik tamoyillarini ta'minlashga qaratilgan mexanizmlar samarali faoliyat yuritayotgani kuzatildi. Dizayn yo'nalishining o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, talabalarning portfolio ishlari va loyiha himoyalarga asoslangan baholash tizimi ularning ijodiy hamda kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishi e'tirof etildi. O'tkazilgan tahlillar mazkur bob bo'yicha belgilangan mezonlarning bajarilganini tasdiqladi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

Talabalarni qabul qilish tartibi, qabul mezonlari, talabalar kontingenti harakati hamda ularni akademik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimiga oid hujjatlar tahlil qilindi. O'rganish natijasida qabul mezonlari va talabalar amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida aniq belgilanganligi, qabul jarayoniga oid barcha zarur ma'lumotlar abituriyentlarga o'z vaqtida va ochiq tarzda yetkazilishi ta'minlangani aniqlandi. Shuningdek, talabalar harakatini tartibga soluvchi mexanizmlar, murojaatlarni qabul qilish va ko'rib chiqish tartibi hamda ta'lim oluvchilarni akademik, axborot va ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash xizmatlari samarali faoliyat yuritayotgani qayd etildi. Ijodiy yo'nalish xususiyatidan kelib chiqib, qabul jarayoniga qo'yiladigan talablarning

oldindan e'lon qilinishi, baholash mezonlarining shaffofligi va barcha abituriyentlar uchun teng imkoniyatlar yaratilishi ta'lim sifatini ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Tahlil natijalari mazkur bob bo'yicha belgilangan mezon va talablarga muvofiqlik ta'minlanganini ko'rsatdi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

Professor-o'qituvchilar tarkibi, ularning ilmiy salohiyati, malaka darajasi hamda ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur kadrlar ta'minotiga oid ma'lumotlar tahlil qilindi. O'rganish natijasida 2026–2027 o'quv yilida kafedrada asosiy shtatda 30 nafar professor-o'qituvchi faoliyat yuritayotgani, ilmiy salohiyat 90 foizni tashkil etishi hamda bu ko'rsatkich bakalavriat ta'lim dasturlari uchun belgilangan me'yorlardan yuqori ekani aniqlandi. Shuningdek, professor-o'qituvchilarning mutaxassisligi o'qitilayotgan fanlar yo'nalishiga mosligi, ularning malakasini muntazam oshirish va rag'batlantirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilayotgani, amaliy tajribaga ega mutaxassislarni ta'lim jarayoniga jalb etish imkoniyatlari yaratilgani qayd etildi. Sanoat dizayni yo'nalishining amaliy va ijodiy xususiyatini inobatga olgan holda, amaliyotchi dizaynerlarning o'quv jarayonidagi ishtiroki talabalarning kasbiy va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish, zamonaviy dizayn yondashuvlarini o'zlashtirish hamda ijodiy muhitni shakllantirishning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Tahlil yakunlari mazkur bob bo'yicha belgilangan mezonlarning bajarilganini tasdiqladi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

Moddiy-texnik baza, o'quv va laboratoriya xonalari, maxsus jihozlar, raqamli ta'lim muhiti hamda inklyuziv ta'lim uchun yaratilgan shart-sharoitlarga oid hujjatlar va mavjud infratuzilma holati tahlil qilindi. O'rganish natijasida amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini sifatli tashkil etish uchun zamonaviy kompyuter texnikalari, 3D printerlar, grafik planshetlar, plotterlar, multimedia vositalari hamda maxsus dasturiy ta'minot bilan ta'minlangan o'quv xonalari mavjudligi aniqlandi. Shuningdek, maket tayyorlash ustaxonasi, foto-studiyalar, raqamli ta'lim muhiti, masofaviy ta'lim imkoniyatlari, sport va ijodiy faoliyat uchun ajratilgan xonalar ta'lim dasturini samarali amalga oshirishga xizmat qilayotgani qayd etildi. Biroq inklyuziv ta'lim sharoitlarini baholash jarayonida 6.4-mezon bo'yicha 6.4.1-indikatorning to'liq ta'minlanmagani, ya'ni sanitariya xonalarining nogironligi bo'lgan shaxslar uchun to'liq moslashtirilmagani aniqlandi. Mazkur holat yuzasidan sanitariya xonalarini universal foydalanish tamoyillari asosida moslashtirish tavsiya etildi. Shu

bilan birga, inklyuziv ta'limga oid qolgan barcha indikatorlar hamda moddiy-texnik ta'minotning boshqa yo'nalishlari belgilangan talablarga muvofiq ekani tasdiqlandi. O'tkazilgan tahlillar asosida ushbu bob umumiy baholash natijalariga ko'ra muvofiq deb e'tirof etildi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Sanitariya xonalari nogironligi bo'lgan shaxslar uchun moslashtirilmagan (6.4-mezon bo'yicha 6.4.1-indikator; mezon qisman muvofiq deb baholangan).
- ✓ Ayrim ijodiy fanlar bo'yicha eng yangi nashrdagi o'quv adabiyotlari ulushini oshirish zarur.
- ✓ Amaliyotchi dizaynerlarni o'quv jarayoniga jalb etish imkoniyatlari to'liq ishga solinmagan.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Sanitariya xonalarini nogironligi bo'lgan talabalar uchun moslashtirish va inklyuziv infratuzilmani rivojlantirish.
- ✓ Dizayn yo'nalishi bo'yicha zamonaviy adabiyotlar va elektron resurslar fondini yangilab borish.
- ✓ Amaliyotchi sanoat dizaynerlarini mashg'ulotlarga muntazam jalb etish.
- ✓ Maket ustaxonasi va raqamli ishlab chiqarish uskunalari bazasini bosqichma-bosqich kengaytirish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, Namangan davlat texnika universitetida 60210400 – "Dizayn (sanoat dizayni)" bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy materiallar, ta'lim jarayonini tashkil etish mexanizmlari, boshqaruv tizimi, kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnik va axborot-resurs ta'minoti kompleks ravishda tahlil qilindi. O'rganish natijalariga asosan ta'lim dasturini boshqarish va ichki sifatni ta'minlash tizimi samarali yo'lga qo'yilgani, dastur davlat ta'lim standartlari, Milliy malakalar ramkasi hamda mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiq ishlab chiqilgani aniqlandi. Ta'lim jarayonida shaffof baholash tizimi, akademik halollik tamoyillari va manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik mexanizmlari

amaliyotga joriy etilgani, talabalarni qabul qilish hamda ularni akademik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha zarur sharoitlar yaratilgani qayd etildi. Professor-o'qituvchilar tarkibining ilmiy va kasbiy salohiyati ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish uchun yetarli ekani, zamonaviy kompyuter texnikalari, 3D printerlar, grafik planshetlar, plotterlar, maket tayyorlash ustaxonasi, foto-studiyalar hamda boshqa maxsus o'quv jihozlari talabalarining amaliy va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishi tasdiqlandi. Baholash yakunlariga ko'ra, 27 ta mezonidan 26 tasi muvofiq, 6.4-mezon esa qisman muvofiq deb baholandi. Mazkur mezon bo'yicha sanitariya xonalarining nogironligi bo'lgan shaxslar uchun to'liq moslashtirilmagani aniqlanib, ularni inklyuziv ta'lim talablari asosida jihozlash yuzasidan tavsiya berildi. Ushbu holat ta'lim dasturining umumiy sifatiga va uni amalga oshirish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan, bartaraf etilishi mumkin bo'lgan jihat sifatida baholandi. Umuman olganda, mavjud dalillar va baholash natijalari bakalavriat ta'lim dasturining belgilangan akkreditatsiya mezonlari va sifat talablariga muvofiqligini tasdiqlaydi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	20.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	5-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

